


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70310109 – Bioiqtisodiyot
magistratura mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN:

- Toshkent davlat agrar universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi, malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	8
2.3.3.	70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	8
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i.....	10

1. 70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil. Uning nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan shaxsga «magistr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi** bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan magistratura bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70310109 – Bioiqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70310109 – Bioiqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70310109 – Bioiqtisodiyot – “Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar” ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, ta'lim muassasalarida bioiqtisodiyot mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, bioiqtisodiyot sanoat tarmoqlarida mavjud muammolarni yechishda tadqiqot metodlarini tanlab olish va ulardan foydalanish, rivojlanayotgan texnologiyalar va iste'mol tanlovlaridan foydalangan holda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning iqtisodiy va atrof-muhitga ta'sirini o'rganish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, mutaxassislikka oid kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70310109 – Bioiqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi iqtisodiy

ko'rsatkichlar tizimi;

- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, bioiqtisodiyot sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik ishlari;

- qishloq xo'jaligi va sanoat chiqindilarini qayta ishlash sektorlari;

- iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiatsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- bioiqtisodiyot sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

- atrof – muhit, qayta tiklanuvchi va tabiiy resurslardan foydalanishda iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili jarayonlari;

- bioiqtisodiyot tarmoqlarida mehnat munosabatlari va ularni modellashtirish;

- bioiqtisodiyot bo'yicha tarmoqlar va sohalar rivojlanish jarayonlari.

1.2.3. 70310109 – Bioiqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyati;

- ishlab chiqarish-texnologik faoliyat;

- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

- loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;

- konsalting xizmati faoliyati.

1.2.4. 70310109 – Bioiqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70310109 – Bioiqtisodiyot mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalar, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, bioiqtisodiyotga oid o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- bioiqtisodiyotga mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

- ishlab chiqarish faoliyati natijalari bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;

- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etish;

- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- fan va texnika yutuqlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etish;
- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy rivojlanish sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- tarmoqlar va sohalarda bo'yicha korxonalarining tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

- ilmiy va amaliy faoliyatda raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va ekotizim vositalarini rivojlantirish;

- iqtisodiyot tarmoq va sohalari korxonalarida yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil etish.

Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqishi va tadqiq qilishi;

- tarmoqlar va sohalarda namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqishi;

- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish malakalariga ega bo'lishi;

- iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari korxonalariga yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tatbiq qilinishini tashkil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- iqtisodiy faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

- iqtisodiy faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

- mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

2. 70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- bioiqtisodiyot tarmoqlari va qishloq joylarining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi endogen va ekzogen omillarni tushuntirish va asoslash hamda ulardan barqaror foydalanishni baholash qobiliyatiga ega bo'lishi;

- mahsulot ishlab chiqarishda bioresurslardan barqaror foydalanish uchun to'g'ri biotexnologiya usulini tanlash tamoyillari va mezonlarini aniqlash qobiliyati;

- maqsadlarini tushuntirish va tanqidiy baholash;
- mintaqaviy, milliy va mahalliy miqyosda aylanma bioiqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga olib boruvchi asosiy strategik maqsadlar va harakatlarni belgilab olish;
- korxonalarni rivojlantirish, texnologiyalarni uzatish va innovatsiyalarni rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarning roli haqidagi bilim va tushunchani namoyish etish. Ilm-fanga oid masalalarni va yuqori texnologiyali va xavfsiz ishlab chiqarishni ta'minlaydigan vositalarni yaxshi tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni ko'paytirish, ifloslanish va qo'shimcha mahsulotlar, suv va energiya iste'molini kamaytirish maqsadida tegishli qayta ishlash texnologiyasini tanlash qobiliyati. Organik va an'anaviy dehqonchilikda ruxsat etilgan ishlab chiqarish vositalari va oziq-ovqat qo'shimchalari o'rtasidagi muhim farqlarni topish va ularning oziq-ovqat xavfsizligi va sifati uchun ahamiyatini tushunish va foydalana olishi;
- dehqonchilik va ishlab chiqarish guruhlarida darajasida xavf tahlilini o'tkazish va ularni to'g'ri yo'q qilish va ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining yuqori sifatini ta'minlash yo'llarini topish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- iqtisodiy o'sish imkoniyatlarining har qanday og'ishlari va kamchiliklarini tahlil qilish, bioiqtisodiy sohalarning rivojlanishini tahlil qilish, qo'shimcha qiymatni oshiradigan mahsulotlarni chuqurroq, to'liq va samarali qayta ishlash imkoniyatlaridan foydalanish, nazariya va amaliyotni integratsiyalash muammolarini hal qilish, xatarlarni tahlil qilish va mijozlarga yo'naltirilgan sirkulyar iqtisod yechimlarini amalga oshirish uchun dolzarb muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- qishloq xo'jaligi va ekologik siyosatning bioiqtisodiy sohaga va qishloq taraqqiyotiga ta'siri bo'yicha hamkorlik qilish va o'z xulosalari va takliflarini ishlab chiqish, shuningdek, bioiqtisodiyot sektori tarmoqlari va qishloqlarni rivojlantirishdagi iqtisodiy jarayonlarni uslubiy jihatdan to'g'ri boshqarish va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- bioiqtisodiyot natijalarini joriy paradigmaga integratsiyalash va ulardan original yechimlarni yaratishda foydalanishni bilish;
- tanlovni asoslash, organik va an'anaviy oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni solishtirish, oziq-ovqat ishlab chiqarish texnologiyalaridagi sezilarli farqlarni tahlil qilish, hosildorlikni, qo'shimcha mahsulotlarni qayta ishlash va yangi texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini, mahsulotlarning ozuqaviy qiymatini va xavfsizlik jihatlarini baholashni bilish;
- bilimlarni boshqarish tizimlari va innovatsiyalarni rivojlantirish maqsadida turli sohalarga oid muammolar va vazifalarni tushuntirish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- nazariy bilimlar hamda sifat va miqdoriy ma'lumotlar tahlilini amaliy qo'llashdan foydalangan holda turli geosiyosiy vaziyatlarda va turli bozor raqobat sharoitida xalqaro bio-asosli mahsulot marketing faoliyatini mustaqil ravishda ishlab chiqish, boshqarish va nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash uchun iqlimga mos qishloq xo'jaligini va aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyasi va barqaror oziq-ovqat tizimlaridagi texnologik yutuqlarni amalga oshirish uchun samarali texnologik sxemalar va ijodiy yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

- Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.
- Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy

kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

- Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

- Magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy amaliyot o'tkaziladi:

- ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: iqtisodchi, tadqiqotchi-pedagog

2.3.2. 70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

2.3.3. 70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'MM1404	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	BIRSM1404	Bioiqtisodiyot rivojlanishi va siyosat	120	4	1
1.04	BO'CHMIM1406	Barqaror o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari va iste'moli (Aqli qishloq xo'jaligi)	180	6	1
1.05	ATRM1QTM1406	Atrof muhit iqtisodiyoti	180	6	2
1.06	BOOMICMIM2404	Barqaror oziq-ovkat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'moli	120	4	3
1.07	BLOGM2405	Barqaror logistika	180	6	3
1.08	BIATTRIBMM2405	Bioiqtisodiyotga asoslangan tadqiqot va texnologik rivojlanish (RTD), innovatsiyalar va biznes modellari	180	6	3
1.09	SIQTM1406	Sirkulyar iqtisodiyot	180	6	1
2.00		Tanlov fanlar	420	14	
2.00		<i>Tanlov fanlar (3)</i>	420	14	2,3
		Jami	1800	60	
		Ilmiy faoliyat	1800	60	
		Jami	1800	60	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 33.333

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, tavakkalchilik, raqobat, raqobatbardoshlik, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari, baholash, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, raqamli iqtisodiyot, kredit-modul tizimi, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:



Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektor S. Islamov

2023 yil « 10 » 07

M.O'.


KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor Sh. Yakubov

2023 yil « 21 » 07

M.O'.



Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida
strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi

Direktor A. Shukurov

2023 yil « 18 » 07

M.O'.




O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari
uyushmasi

Rais M. Rahmatov

2023 yil « 19 » 07

M.O'.



Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor K. Sharipov

2023 yil « 20 » 07

M.O'.



TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
70310109 – Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“10” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori prof. K.A.Sharipov, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi direktori A.Shukurov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70310109 - Bioiqtisodiyot magistratura mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
rektori, professor

K.Sharipov

✓ **Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida**
strategik va tadqiqotlar xalqaro markazi
direktori

A.Shukurov

Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor

S.Islamov